

# **“ONA TILIM BUYUKLIKDA ENG BALAND TOG’SAN.” TADBIRINING SSENARIYSI.**

*Tadbir o’tkaziladigan joy yoki sahna chiroyli bezatiladi. To’rda buyuk alloma Alisher Navoiy portreti. Uning til haqidagi fikrlari yozilgan plakatlar, ona tilini mukammal egallash, uni asrash, so’zlashuv odobiga doir maqollar, hikmatli so’zlar, shiorlar osilgan.*

*Bundan tashqari, taniqli allomalarimizning ham bu boradagi fikrlari keltirilgan. Sharlar, turfa gullar sahna chiroyiga chiroy qo’shgan.*

*Mayin musiqa sadolari ostida ikki boshlovchi sahnaga chiqishadi. Qo’llari ko’ksida, barcha bilan ta’zim ila salomlashadilar. O’quvchilar ona tilimizni sharaftab she’rlar aytadilar.*

**1-O’quvchi:** Ona tilim muqaddas tilim,

Momolardan qolgan merossan.

Senda so’zlab, yashnaydi tilim,

Jarangdorsan, o’zbekka xossan.

**2-O’quvchi:** Navoiyni o’qidim senda,

Tariximdan so’zjadi Qur’on.

Ona tilim, g’urursan menga,

Bugun seni tanidi jahon.

**3-O’quvchi:** Ona tilim, muqaddas tilim,

Onam allalari qulqolarimda.

Senda so’zlab yayraydi dilim,

Jarangdoshn ardoqlarimda.

Hamma : Ona tilim, buyuklikda eng baland tog’san,

Ona tilim, suyuklikda Erami bog’san.

**1-Boshlovchi :** Bu dargohda ta’lim bergen

Ustozlarim, assalom.

Yuzi gulgun, qalbi quyosh,

Mehribonlar, assalom!

**2- Boshlovchi:** Bizga ko’zin nurin bergen,

Murabbiylar, assalom!

Bilimning keng sirin ochgan,

Muallimlar, assalom!

**1-boshlovchi:** Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar, aziz davramiz ishtirokchilari. Bugungi til bayramiga bag’ishlab o’tkazilayotkan (hamma o’quvchilar jo’rlikda) “Ona tilim, buyuklikda eng baland tog’san”, deb nomlangan tantanalı tadbirimizga xush kelibsiz !

Mayin musiqa taraladi

**4-O`quvchi:**

Oh,ona tilginam,muqaddas tilim,  
Bir og`iz so`zingga jonim tasadduq.  
Bunchalar shirinsan,bunchalar so`lim,  
Bormikan ajib his senda ham ortiq?

**5-O`quvchi:**

Ona tilim, o`zingdirsang elni opichlab,  
Shu kunlarga olib kelib, taratib ziyo.  
Ona tilim,o`zingdirsang ming yilla asrab,  
O`zbek elin istiqlol yo`llangan daho.  
O`quvchilar ijrosida Vatan haqida qo`shiq kuylanadi.

**1-Boshlovchi:**Darhaqiqat,O`zbekistonhur o`lkam deb, ozodlik deb tinchlik tantana qilgan o`lka deb madhiyalar o`qidik,hamdu sanolar aytdik.Ammo o`sha buyuk o`lkada o`z tarixiga,urf-odatimizga tahqir ko`zi bilab qaradi

**2-Boshlovchi:**Biz uzoq vaqt milliyligimizdan,urf -odat va qadriyatlarimizdan bebahra qoldik.Yaxshiyamki xalqimiz baxtiga ozodlik yuz ochdi.Ayniqsa,o`zbek tiliga Davlat tilimaqoming berilishi ushbu boradagi eng katta voqealardan biri bo`ldi.

**1-Boshlovchi:**Bayram munosabati bilan barchangizning o`qish va ishlaringizda ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.Ma`lumki,inson go`zalligi,ma`naiyati,buyuk merosi ,olam barqarorliginining asosi bu-Tildir.

**2-Boshlovchi:**Shu sabab onadek aziz tilimizni avaylab-asrash,e`zozlash barchamizning muqaddas burchimizdir.O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 4-moddasida O`zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlarning tillarini,urf-odatlarini hurmat qilish ta`kidlangan.

( *Mayin musiqa sadosi ostida ona siymosidagi o`quvchi kirib keladi.*)

**Ona :**Mehribon farzandlarim ,jondan aziz dilbandlarim,o`z yurtiga fidoyi mard o`g`lonlarim.Sizlar ona tilimizni doimo avaylab-asrangular.O`z tilimizning qatorida qardoshtillarni ham qunt bilan o`rganib hurmat qila biling.Mening sizlarga murojaatim shuki,tilimizning sofligini saqlang,uning boy ifoda vositalaridan o`rinli va unumli foydalanishga harakat qiling,go`zalligini namoyon eting.Shuni unutmangki ,sizning komilligingiz avalo,muomala madanyatingizda namoyon bo`ladi.

**6-O`quvchi:**Munis onajon ,har bir so`zingiz biz uchun muqaddas.Chunki o`zingiz bu tuyg`uni ,mehrli shirin allangiz ila ko`nglimizga jo aylagansiz.

**7-O`quvchi:**

Ona tilim onajonim tili bu,  
Beshikdanoq singgan jonus qulqoqqa.  
El yurtim,xonumonim tili bu,  
Qadimlikdan o`xshar ona tuproqqa.  
Avlodlarga xazina u bebafo.

**8-O`quvchi:**Yorug` dunyoga kelgan murg`akkina go`dak birinchi bo`lib onasining orombaxsh allasini eshitadi.Ona tili uning qon-qoniga hayot ramzi bo`lgan oq sut bilan singadi.Go`dak tili chiqqach,birinchi bo`lib “ona”so`zini aytadi.Shunday qilib ona tiliga bo`lgan mehr-muhabbat,sadoqat,e`tiqod go`daklik chog`imizdan paydo bo`ladi.

**2-Boshlovchi:** Ona tiliga bo`lgan mehr ham onaga bo`lgan muxabbatdek mustahkamlanadi. Shu til orqali inson hayotni tanlaydi, oqu qoranı yaxshi-yomonniajratadi. Shu tildaharf taniydi, bilim chashmasidan tashnaligini qondiradi.

**8-O`quvchi:**

Shu tilda o'qidim men Alifboni,  
Shu tilda o'qidim "VATAN" so'zini,  
Shu tilda ajratdim oqu-qorani,  
Shu tilda topoldim so'z-e'tiborni.

**1-Boshlovchi:** til – millatning qalbi, uni avaylab-asrab har bir inson uchun farzdir. Yana shuni unutmaslik lozimki, "til jarohati bitar- dil jarohati bitmas. Yomon so'z inson ko'nglini ranjitar, shirin so'z inson ko'nglini tog' etar.

**2-Boshlovchi :** Endigi navbat ibratga chorlovchi til haqidagi maqol va hadislarga:

O'quvchilar navbat bilan so'zlaydilar.

**1-O'quvchi:**

Tiling birla ko'nglinhni bir tut.

**2-O'quvchi:**

Boshga baloni til keltirar.

**3-O'quvchi:**

Tilga ixtiyorsiz-elga e'tiborsiz.

**4-O'quvchi:**

Tili shirinning do'sti ko'p bo'lur.

**5-O'quvchi:**

Tilga e'tibor – elga e'tibor.

**6-O'quvchi:**

Til jarohati ,bitar, dil jarohati bitmas.

**7-O'quvchi:**

Yaxshi so'z-jon ozig'i.

**8-O'quvchi:**

Bir ko'ngil imorati,

Ming makka ziyyorati.

**9-O'quvchi:**

Shirin so'zlar aytgil birodar,

Shirin so'z foydadir, u ko'ngil bezar.

**10-O'quvchi:**

Har kim chuchuk so'z elga ishor aylagay,

Har nechaki ag'yordur, ul yerniobod aylagay.

Iboshlovchi: Til olloh taolo o'z bandalariga bergan hisobsiz ne'matlari qatoriga kiradi. Kishi bu ne'matning qadriga yetsa, shukronasini qilsa, saodatga erishadi.

**11-O'quvchi:**

Bobolardan bizga ezgu meros til,

Barcha qonunlarin ardoqlagaymiz doim.

Ma'naviy merosni asragaymiz bil!

Qalbimizga, jonomizga ko'zgu til.

Darhaqiqat, allomalarimiz tilimizning quadrati va ezgulikdan so'zladilar.

**12-O'quvchi:** Bunda Rabg'o'ziy "Qissasi Rabg'oziy" asari ila o'zining nodir hikoyalarini yaratdi.

**13-O'quvchi:** Yusuf Hos Hojib "Qutadg'u biling", Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'otit turk" asari ila til tarixidan so'zladilar.

**14-O'quvchi:** Alisher Navoiy turkiy tida "Hazoyin ulmaoni" dek bebahoh, "hamsa" dek shoh asarini, go'zal lirik g'azallarni yaratib, so'z mulkining sultonini bo'ldi.

**15-O'quvchi:** Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining betakror "Boburnoma"dek memuar asari orqali zamonasi tarixidan so'zlaydi.

**16-O'quvchi:** Farobiy fozil odamlar haqidagi asarida ko'p ibratlari voqealardan so'zladi.

O'quvchilar ijrosida milliy raqislarimizdan biri ijro etiladi.

**1-Boshlovchi:** (Alifbega ishora qilib):

Tilimizning go'zalligi va betakror so'zlar durdonasi avvalo ilk kitobimiz Alisbeda mujassamlashgan.

Kattakon alifbe kitobi maketi ko'targan bola chiqadi.

**17-O'quvchi:**

Poydevori har bir tilning,

Yozuv, harflardir azal.

So'ztuzadi, ular so'zga,

Ma'no berar galma-gal.

**18-O'quvchi:**

Bobolardan meros ezgu til,

Yozuvlari buyuk buni bil!

Tovushlarda aks etadi,

Qalam buni bayon qiladi.

**19-O'quvchi:**

Tovushlarni ta'rifetay,

Ular tilning gavharu.

Shu boisdan Alifboden,

Joy oliishgandir bari.

**20-O'quvchi:**

Unli harflar yozilgan plakat ko'targan o'quvchilar saf tortishadi.

Oltovmiz biz unutmang,

Bizda bor faqat ovoz,

O va A bizga qondosh,  
I va E esa safdosh,  
U va O' ham bor yana,  
Barimiz so'zda bosh-qosh.

**21-O'quvchi:** Undosh harflar yozilgan plakat ko'targan bolalar ham sahnadan joy olishadi.

Yigirma uch qarindosh,  
Deyishar bizni undosh.  
Ovoz-shovqin raqs tushar,  
Quvnaymiz bo'lib qondosh.  
Tutuq belgi jo'ramiz,  
So'zlarda u oshnamiz.  
"Barkamol avlod " qo'shig'i ijro etiladi.

**2-Boshlovchi:** Go'zal tilimizni madh etish maqsadida endigina navbatni mushoiraga bersak.

Yigitlar va Qizlar she'r aytishib, o'zaro bellashadilar.

1-Boshlovchi: Aziz mehmonlar, shu bilan bugungi bayram tadbirimiz o'z nihoyasiga yetdi. So'zimiz ohirida sizga ushbu tilaklarni bildirib qolamiz:

Mustaqillik olib kelgan erk, hurlik baxti abadiy bo'lsin. Beg'ubor ko'nglingizga ozodlik, istiqlol quvonchlari yanada shijoat bag'ishlasin!

**2-Boshlovchi:** Til, millatning qalbi, uni avaylab-asrash har bir inson uchun ham farz, ham qarzdir. Mana shu muqaddas tilimizni doimo sof bo'lishini barchangizga tilab qolamiz.

O'quvchilar baravar aytishadi:  
Ona tilim o'z tilim,  
Dunyo yuzing ko'r tilim.  
Tillar ichra ulug'san,  
Yagonasan zo'r tilim.  
Ona tilim bor bo'lgin,  
Ardoqlaymiz biz seni.  
Xazina deb ardoqlar,  
Barcha o'g'il-qiz seni.

**Boshlovchi:** Xayr, omon bo'ling!

E'tiboringiz uchun tashakkur!

Musiqa sadolari ostida kechaga yakun yasaladi.

**Chirchiq shahar  
XTMFMT va TEB tasarrufidagi  
8-sonli umumiyl o'rta ta'lim mактабининг  
2-“ V” sinfida” 21-oktabr- O'zbek tiliga  
Davlat tili maqomi berilgan kun”ga bag'ishlab  
o'tkazilgan “ Ona tilm buyuklikda eng baland  
tog'san” mavzusidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbir  
ssenariysi.**

**Sinf rahbari:**

**Isanova Sh.M.**